

## AN’ANAVIY USLUBDA OVOZ SOZLASH MASHQLARI

**Botirova Maqsuda**

**Urinboyev Mirjalol**

*Respublika musiqa va san’at kolleji*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola an’anaviy uslubda ovoz sozlash mashqlarining o’ziga xos xususiyatlarini o’rganishga bag’ishlangan. Maqolada an’anaviy xonandalikda ovoz sozlash jarayonining muhimligi, ovoz texnikasining rivojlanishiga ta’siri va mashqlarning xonandaning ijro mahoratini oshirishdagi o’rni tahlil qilinadi. An’anaviy uslubda ovoz sozlash mashqlari, asosan, ovozning to’g’ri chiqishi, uning rang-barangligi va davomiyligini boshqarish, shuningdek, ovozning baland va past tonlari o’rtasidagi muvozanatni saqlashni maqsad qiladi. Ovoz texnikasi va ijro uslubidagi mukammallikni oshirish uchun bu mashqlar o’ziga xos ahamiyatga ega bo’lib, xonandaning musiqiy ifodalarini to’liq ravishda rivojlantirishga yordam beradi. Maqola ovozning to’liq ishlatilishi, texnik mahoratning oshirilishi va xonandalar tomonidan ijro etilayotgan an’anaviy musiqaning sifatini yaxshilashdagi ahamiyatini yoritadi.*

**Kalit so’zlar:** *an’anaviy uslub, ovoz sozlash, ovoz texnikasi, xonandalik, ijro mahorati, ovoz balansi, musiqa ifodasi, ovoz mashqlari, ovozni boshqarish, xonanda, musiqiy texnika, an’anaviy xonandalik san’ati, ovoz rivojlanishi, ovoz rang-barangligi.*

Talabalarga bu uslubda kuylash malakalarini o’rgatish va an’anaviy kuylash mahoratlarini shakllantirish uchun ijrochilarda ovoz sozlash mashqlarining ahamiyati katta.

Akademik vokal ijrochiligida asosan “Italyan opera maktabi” bo’yicha kuylash malakalariga e’tibor berilib, ijrochilar toza intonnatsiyada kuylashga o’rgatiladi. Bu yerda barcha tovushlar toza va tebratilmay ijro etilishi kerak. Shuning uchun barcha ovoz sozlash mashqlarida ham ijrochi-xonandalardan sof notalarda kuylash, hech qanday o’zgarishsiz, talqinsiz ijro etib berish talab etiladi.

O’zbek va mumtoz ashulachiligimiz ijrochilik maktabi esa mutlaqo boshqa uslubda, har-bir nota va kuylash bo’lakchalariga alohida bezak, nola, nolish, honish, tovushlarni kuylashda tebratma harakatlarda ushlab turish va ashulalarimizning bezagi bo’lgan avj pardalarda kuylash malaka va ijro mahorati maktabi ustun turadi. Ijrochiligimizdagi bu qirralarni yuzaga chiqarishimiz uchun ovoz sozlash mashqlari ham shu yo’sinda berib borilish zarur. Buning uchun an’anaviy xonandalik maktabidan ijro namunalari talabalar imkoniyatlariga mos holda ashula “Xang”lari, daromad va miyonxat qismlaridan ashulalar bo’laklaridan namunalardan foydalanib borishimiz lozim.

An’anaviy uslubda kuylash malakalarini shakllantirishda mumtoz ashulalar, bastakorlik ijodi namunalari foydalanishimiz ham mumkin.

Rivoyat qilishlaricha, Xuroson safarida Buxoro amiri Nasr ibn Ahmadga Marv ob-havosi nihoyatda xush kelib, shu yerda uzoq qolib ketadi. Arkoni davlat yurtini sog’inib, betoqat bo’la boshlaydilar. Lekin yurak yutib, bu haqida hukmdorga og’iz ocha olmaydi. Oxiri Somoniylar davlatining malik ush-shuarosi Abu Abdullo Rudakiyini sovg’a-salomlar bilan

siylab, amirni Buxoroga qaytishga ko‘ndirishni so‘raydilar. Shunda shoir Nasr ibn Ahmad huzuriga kirib “Bo‘yi jo‘yi Mo‘liyon oyad hame” (“Mo‘liyon arig‘i suvining bo‘yi kelmoqdadir”) misrasi bilan boshlangan, asrlar davomida shuhrat tutib, 120 shoir tazmin bitgan, lekin birortasi badiiyatda unga yaqinlasholmagan g‘azalni kuyga solib ijro etadi. Vatan tuyg‘usi, intizorlik kechinmalari o‘zining hassos ifodasini topgan bu yoniq qo‘shiqni eshitgan amirning ko‘nglida Buxoro sog‘inchi shunchalik jo‘sh urganki, hatto kiyinishni ham unutib, chodirdan yugurib chiqqanicha otga minib, “Qaydasan, Buxoro” deb yo‘lga tushgan ekan .

Komiljon Otaniyozovning aytishicha, Xorazmda azaldan “Suvora” ni avj pardada kuylagan xonandagina “hofiz” deb tan olingan. Ustozning bu fikrlarini davom ettirib, Ortiq Otajonov ham: ”San‘at olamiga maqom degan darvozadan kiriladi” –deydi.

Ma‘lumki, an‘anaviy xonandalikda har qanday qo‘shiq - so‘z, ohang va ijro uyg‘unligidan iborat yaxlit san‘at asaridir. Bu unsurlardan biri yetishmadimi, bilingki, o‘sha qo‘shiq mukammal bo‘lmaydi. Keyingi paytlarda bu uchlikni birga ko‘rish amri mahol bo‘lib qoldi. Kuy go‘zal bo‘lsa, so‘zi sayoz, matn teran bo‘lsa, kuy xarob, she‘r ham, musiqa ham joyida bo‘lsa, ijro o‘xshamaydi. Biz bu uchlik yoniga to‘rtinchi qilib ovozni, beshinchi qilib dardni qo‘shgan bo‘lar edik. Holbuki, Ortiq Otajonov ta‘biri bilan aytganda, san‘atkor uchun tabiiy ovozning ahamiyati beqiyos bo‘lib, u qo‘shiqni tutib turadigan birinchi qanotidir. Dard ham ashulaning muhim unsurlaridan – so‘z ham, musiqa ham, ovoz ham, ijro ham joyida bo‘lsa-yu, xonandada dard bo‘lmasa, bunday ashulalar tinglovchi qalbiga yetib bormaydi.

O‘zbek xonandalik san‘ati juda qadimiy va serqirraligi bilan Sharq xalqlari madaniyati orasida alohida ahamiyat kasb etib kelgan.

## ADABIYOTLAR

1. Abdullayev, S. (2015). "O'zbek musiqasining tarixi va rivojlanishi." Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti.
2. Shamsiyev, M. (2017). "Maqom va mug'am: O'zbek musiqa san'ati." Toshkent: Musiqa nashriyoti.
3. Mahmudov, S. (2018). "O'zbek xonandaligining mahorati va ijro texnikalari." Samarqand: Sharq nashriyoti.
4. To'raev, D. (2019). "O'zbek xalq musiqasida an'anaviy xonandalik." Buxoro: Buxoro davlat universiteti.
5. G'aniyev, T. (2014). "Xalq musiqasi va an'anaviy xonandalik san'ati." Toshkent: O'zbekiston xalq musiqasi akademiyasi.
6. Mamatov, X. (2013). "Xalq musiqa an'analari va xonandalik." Toshkent: O'zbekiston Milliy Akademiyasi.